

MISRLIK ILK HANAFIY OLIMI

Abdavaxabova Surayyo Zokirxo'ja qizi,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

E-mail: abdavaxabovasurayyo@gmail.com

Ilmiy rahbar: PhD. N.To'rayev

Annotatsiya: Abu Ja'far Tahoviy hanafiy mazhabining ilk, yetuk ulamolaridandir. U Misrlik bo'lgani bois, hanafiy mazhabini Misrda yoyilishiga ulkan hissa qo'shgan ulamo sifatida ulug'lanadi. Chunki u yashagan davrda Misrda shofeiylilik mazhabi hukm surgan va u yerga hanafiy qozilari odatda Kufadan kelib faoliyat yuritganlar. Shu etibordan olimlar Imom Tahoviyni Misrlik ilk hanafiy olimi deb tariflashadi.

Abu Ja'far Tahoviy hadis, fiqh va aqid ilmlarida yetuk olim bo'lganini barcha e'tirof etadi. Bundan tashqari u, barcha mazhab ilmlarini mukammal egallagan va asarlarida hanafiy mazhabi dalillari asosli ekanligini isbotlab bergan. Imom Tahoviy, hanafiylik mazhabi ulamolari Abu Hanifa va uning shogirdlari tomonidan ishlab chiqilgan usul qoidalari doirasida ijtihod qilgan va ba'zi o'rinlarda ulardan farqli bo'lgan qarashlarini ham keltirib o'tgan.

Kalit so'zlar: Tahovi, mazhab, sunnat, fiqh, hadis, siqa, ihtilof, hanafiy mazhabi,

Hadis, fiqh va aqida ilmlarini o'rganib, ularni o'zidan keyingi avlodlarga o'rgatishda bemisl iz qoldirgan ulamolar qatoroda Imom Tahoviy salmoqli o'rin egallaydi.

Abu Ja'far Tahoviy Yaman qabilalaridan hisoblanmish Hajrul Azd qabilasidan hisoblanadi. U Nil daryosi g'arbiy sohilida, Misrning "Taho" shaharchasida tug'ilgan,

shundan Tahoviy nisbasi kelib chiqqan. Olimga Azdiy, Hajariy, Misriy, Tahoviy kabi nisbalar berilgan. Ularni tahlil qilinsa, Azd Yamanning mashxur urug'laridan biri bo'lib, Hajar mazkur urug'ning bir oilasidir. Azdning ikkinchi mashxur oilasi Shanuadir. Allomani Shanualik deb o'ylashmasligi uchun Hajariy nisbasi ham qo'shilgan¹. Hofiz Ibn Asokir allomaning nasablarini Sulaymgacha, Ibn Xallikon esa Abdulmalikkacha zikr qilganlar. Alloma ma'lum vaqt "Jiza" nomli mavzeda istiqomat qilgani uchun Jiziy nisbasi bilan ham mashxur. Badriddin Ayniyning (vaf. 855/1451y.) aytishicha, Imom Tahoviy nisbasi Misrning yuqori qismidagi Ashmuniy ishchilariga nisbatan aytiladi. Doktor Abdulmajid Mahmud Taho shahri borasida chuqur tadqiqot olib borib, Ayniyning fikri to'g'ri, degan xulosaga keladi va "Tahoviyning nisbasi beriladigan Taho qadimiy qishloq bo'lib, hozirda u Minyo shahri chekkasidagi Samalut hududi markaziga yaqin "Taho al-a'mida" nomi bilan ataladigan joydir", deydi².

Tahoviy ilm va salohiyati bilan mashhur, ziyoli oilada tug'ilgan. Bu oila yuqori Misrda katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan. Oila rahbari Muhammad ibn Salama o'z zamonasida yetuk adabiyotchi, she'riyatda mohir, bilimdon va fozil kishi bo'lgan. Onasi esa Imom Shofe'iyning shogirdi Muzaniyning singlisi bo'lib, olima, faqiha va soliha ayol edi. Imom Suyutiy Misrdagi shofe'iy faqihlari qatorida Tahoviyning tog'asini ham zikr qilib o'tgan³. Ko'rinib turibdiki, Imom Tahoviy taqvodor oila va salohiyatli xonadonda voyaga yetgan.

Ulamolar allomaning tug'ilgan yili borasida ixtilof qilganlar. Ibn Xallikon va Tamimiy 238/852 yil tug'ilgan deyishgan. Alloma Ayniy 229/843, ibn Asokir va Ibn Yunus 239/853 yilda tavallud topgan deydilar. Ibn Asokir daqiq iboralar bilan u kishining tug'ilishlarini belgilab aytadi: "Ba'zi ahli ilmlar Abu Ja'far Tahoviyning tug'ilishlarini 239/853 sana robi'ul avval oyining 10 kuni deyishadi va shunga ko'ra mutaqaddim tarixchilar Yoqut Hamaviy va boshqalar tug'ilishlarini belgilashadi". Ibn Javziy "Al-Muntazim"da, Ibn Hajar "Lisonul me'zon" asarida, Tahoviy tug'ulgan yilni

¹ Xabibullo Sagdiyev. Abu Ja'far At-Tahoviy hayoti va ilmiy me'rosi. – T.: 2014. – B. 6.

² Tahoviy. Shuayb Arnaut. Sharh Mushkilul-osor. – Bayrut: Muassasat ar-Risala, 1994.J. 1. – B. 6.

³ Tahoviy. Shuayb Arnaut. Sharh Mushkilul-osor. – Bayrut: Muassasat ar-Risala, 1994. – B. 44.

hijriy 239/853 sana deb ko'rsatishgan. Bu fikrni quvvatlagan holda Suyutiy "Husnul muhodara"da, Ibn Kasir "Bidoya"da, Shoh Abdulaziz "Bo'stonul muhaddisiyn" asarlarida ayni shu sanani keltirishgan⁴. Shayx Abdulaziz Mansur hazratlari 238/852 yiltug'ilgan degan so'zni olganlar⁵.

U kishining otalari Muhammad ibn Saloma diyonatli, taqvodor, arab adabiyotidan habardor va shariatga qiziqadigan kishi bo'lgan. U 264/877 yili, tog'asi Ismoil Muzaniy bilan bir yilda vafot etgan.

Tahoviy ilk ta'limni, o'qish-yozishni onasidan o'rgandi. Uning onasi, buyuk shofeiy imomlaridan bo'lgan Ismoil ibn Yaxyo Muzaniyning singlisi bo'lgan. Otasidan ilm va adabiyotning ma'lum bir qismini o'rgandi. Keyinchalik Zakariyo Yahyo ibn Muhammad ibn Amrning qiroat darslariga qatnashdi. Tahoviy bu yerda Qur'oni karimni to'liq yod oldi. So'ng tog'asi Muzaniydan shofe'iy mazhabi, shuningdek, hadis va roviylar ilmini o'zlashtirdi.

Abu Ja'far Tahoviy hijriy 268-269 yillar G'azo, Asqalon, Shom kabi davlatlarga safar qilgan. U yerdagi olimlar va muhaddislar bilan tanishgan hamda ulardan rivoyatlar ham qilgan. Tahoviy hanafiy fiqhini Abu Hazmdan, u kishi Iso ibn Abondan, u Muhammad ibn Hasandan, u esa Abu Hanifadan o'rgangan. Yana shu shakilda, Abu Bakr ibn Muhammad Ammida, u Muhammad ibn Sam'odan, u Muhammad ibn Hasandan, u esa Abu Hanifadan o'rgangan⁶.

Olimning ko'plab shaharlarga safar qilmaganligi uning darajasini pasaytirmaydi. Chunki u davrda Misr, buyuk allomalar va roviylar bilan to'lib toshgan, ilmu ma'rifati bilan dong taratgan ulamolar, yer yuzining turli o'lkalaridan Misrga kelishar va hadislar rivoyat va imlo qilinadigan majlislar o'tkazishar edi. Ular turli mazhablardagi kishilar bo'lib, o'z madaniyati va sharoitlari etiboridan hukmlar chiqarish masalasida ilm va tajribaga ega ulamolar bo'lganlar. Imom Tahoviy ham ularning bu ilmidan foydalanishga urunar, hadislar eshitib, fiqhiy bilimlarini oshirishga harakat qilardi.

⁴ Xabibullo Sagdiyev. Abu Ja'far At-Tahoviy hayoti va ilmiy me'rosi. – T.: 2014. – B. 6.

⁵ Shayx Abdulaziz Mansur. Aqoid matnlari. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2006.

⁶ Tahoviy. Shuayb Arnaut. Sharh Mushkilul-osor. – Bayrut: Muassasat ar-Risala, 1994. – B. 47.

Uning o'tkir zehni, ilmga bo'lgan rag'bati, masalalarni tushunishdagi yuksak farosati Misrga tashrif buyurgan olimlardan ilm o'rganishga chorlardi. Uning ustozlari soni 72 tadan ziyod bo'lib, "Sharhi Mushkilil-Osor" asarida ularning soni 150 deb berilgan⁷. Quyida ulardan ba'zilar keltiriladi.

1. Alloma, faqih, Ismoil ibn Yahyo ibn Ismoil ibn Amr ibn Muslim al-Muzaniy al-Misriy (vaf. 264/877y.) Imom Shofeyning do'sti va shogirdi, mazhabning yoyilishiga ulkan hissa qo'shgan ulamo⁸.

2. Imom, alloma, ko'plab hanafiy imomlarining ustozlari, Abu Ja'far Ahmad ibn Abu Imron Muso ibn Iso al-Bag'dodiy. (vaf. 280/893y.) U kishi faqih, muhaddis va hofiz bo'lganlar. Imom Tahoviy buyuk faqih, tadqiqotchi, muhaqqiq olim, hanafiy mazhabining eng yirik namoyandalaridan biri, uchinchi mujtahidlar tabaqasining vakili bo'lib, bir qator mo'tabar kitoblar muallifidir⁹.

3. Faqih, alloma, qozi Abu Hazm Abdulhamid ibn Abdulaziz as-Sakuniy al-Basriy. (vaf. 270/884y.) Hanafiy mazhabi olimlaridan bo'lib, Shom, Kufa, Bog'dodda qozilik qilgan.

4. Qozi, muhaddis, faqih Abu Bakr Bakkor ibn Qutayba al-Basriy. Misrda qozilar qozisi bo'lgan. Olim fiqh va hadis ilmida yetuk, taqvoli va haybatli kishi bo'lgan, imom Tahoviy undan ko'plab rivoyatlar naql qilgan.

5. Qozi, ishonchli muhaddis Abu Ubayd Ali ibn Husayn ibn Iso al-Bag'dodiy (vaf. 319/931y.) Imom Shofeyning shogirdlaridan bo'lgan.

6. Abu Is'hoq Ibrohim ibn Marzuq al-Basriy. (vaf. 270/884 y.)

7. Hofiz Abu Ali Husayn ibn Muariq al-Bag'dodiy hijriy 261- yili vafot etgan.

8. Abul Hasan Ali ibn Abdulaziz al-Bag'aviy. Haramu sharifning shayhi bo'lgan (vaf. 280/893y.)¹⁰.

9. Abu Ja'far Ahmad ibn Is'hoq ibn Buhlul ibn Hasson Hanafiy (vaf. 318/932y.)

⁷ Tahoviy. Shuayb Arnaut. Sharh Mushkilul-osor. – Bayrut: Muassasat ar-Risala, 1994. – B. 48.

⁸ Zahabiy. Siyaru Alamin Nubalo. – Qohira: Dorul hadis, 2006 – XII. B. 492.

⁹ Ahmad Sa'id Havva. Al-madhal ila mazhab al-imam Abu Hanifa an-Nu'man. – Jidda: Dar al-Andalus al-xazro, 2002. – B. 407.

¹⁰ Tahoviy. Shuayb Arnaut. Sharh Mushkilul-osor. – Bayrut: Muassasat ar-Risala, 1994. B. 58.

10. Hofiz abu Ishoq Ibrohim ibn Abu Dovud ibn Sulaymon ibn Dovud al-Asadiy. Asli Kufalik bo'lgan, Misrda yashagan (vaf. 270/884 y.)

Imom Tahoviydan hadis va fiqh o'rgangan shogirdlari borasida tadqiqod qilganlar ularning soni ko'pligini aytadilar. Muhammad Yusuf Kandehlaviy va Muhammad Zuhriy an-Najjor turli manbalar asosida Tahoviyning shogirdlaridan 49 tasining ismini keltirganlar. Kavsariy ham "Al-Hoviy"da ularning bir qismini zikr etgan. Ularning ba'zilari quyidagilardir:

1. Ahmad ibn Ibrohim ibn Hammod. Misr qozisi bo'lgan. Avvalroq Misrda qozilik qilgan Ismoil al-Javhariyning nabirasidir. Hijriy 329-yili vafot etgan.

2. Faqih, Ahmad ibn Sulaymon al-Bag'dodiy. Misrda yashagan, Ibn Jarir mazhabi izdoshlaridan bo'lgan.

3. Ahmad ibn Abdulvoris az-Zajjoj. Zahabiyning "Tabaqot"ida hadis hofizi sifatida zikri kelgan muhaddislarning mashxuri.

4. Ahmad ibn Muhammad al-Usvaniy. Molikiy mazhabi buyuk faqihlaridan biri bo'lgan. Hijriy 364-yili vafot etgan.

5. Qozi, Ahmad ibn Muhammad Abu Bahr ad-Damig'oni. Uzoq muddat Misrda qozilik qilganidan so'ng Misrga kelgan. Tahoviyning oldida ko'p vaqt birga bo'lgan Hanafiy ulamosi.

Abu Ja'far Tahoviy, Imom Shofeiyning shogirdlaridan bo'lgan tog'asi Muzaniydan, shofeiyy fiqhini o'rganib, keyinchalik hanafiy mazhabiga o'tishga qaror qiladi. U, Abu Hanifa, Abu Yusuf, Imom Muhammad kabi hanafiy mazhabi olimlarining asarlarini o'rganib, dalillardan hukm chiqarishda hanafiy mazhabi metodologiyasiga tayangan xolda ish olib borgan. B'azi masalalarda mazhab imomlaridan farqli ravishda taqlid yo'ldan ketmay, bir qancha o'rinlarda o'z qarashlarini dalillari bilan bayon etgan. Uning shofeiyylik mazhabidan, hanafiylikka o'tishi sabablarini turli olimlar turlicha izohlaydilar.

Imom Tahoviy buyuk ilm sohibi edi. U islom olamida, fiqh, aqida, hadis, tafsir, taboqot yo'nalishlarda kitoblar ta'lif etgan yetuk olim sifatida ulug'lanadi. U yashagan

davrda muayyan bir mazhabga ergashish masalasi bugungiday ahamiyat kasb etmagan va shu bilan bir qatorda, kimgadir ergashishdan ko'ra, yuzaga kelgan masala yuzasidan jiddu jaxd bilan izlanish, ijtihod qilish afzal ko'rilgan. Shuning uchun, olimning mazhabini o'zgartirganligi va ba'zi masalalarda o'zi amal qilib turgan hanafiy mazhabi imomlari fikriga qo'shilmagan xolda o'z qarashlarini bildirganligining asosiy sabablari sifatida, u yashagan davr va ilmiy muhit kabi omillarni asos qilib keltirishimiz mumkin.

Abu Ja'far Tahoviy umri davomida islom fanlari hadis, fiqh, aqida, Qur'on ilmlarini mukammal o'rganib, o'zidan bir qancha asarlar meros qoldirgan qomusiyolim hisoblanadi. Quyida ulardan ba'zilarini zikr qilamiz:

“Sharhu Mushkilul Osor”, “Aqidatut Tahoviy”, “Maoniul Osor”, “Ahkomul Qur'on”, “Ixtilaful Fuqaho”, “At-Tasviya bayna haddasana va axbarana”, “Sunan ash-Shofe'iy”, “Muxtasar Tahoviy”, “Ash-Shurutus sag'ir”, “Ash-Shurutul avsat”, “Ash-Shurutul kabir”, “An-Navodir val-Hikoyat”, “Al-Vasoya al-Faroiz”, “Al-Hitobot fil-Furu”, “At-Tarihul kabir”.

Allomaning tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan, lekin bizgacha yetib kelmagan asarlari ham mavjud bo'lib, quyida ulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz:

“Axxam al-Qiron” (Kasrali qof bilan), “Axbaru Abi Hanifata va asxobihi”, “Ixtilafu ar-rivayati ala mazhabi al-Kufiyyin”, “Kitab al-ashriba”, “Al-Hikayat va an-navodir”, “Hukmu arzi Makka”, “Ar-Raddu ala Abi Ubayd fiyma axtoa fiyhi fiy kitab an-Nasab”, “Ar-Roddu ala Iysa ibn A'ban”, “Ar-Roziya”, “Sharhi Jome'u as-sag'ir”, “Sharhi Jome'u al-kabir”, “Ash-Shurut al-avsat”, “Al-Faroiz”, “Qasm al-fay val-g'anoim”, “Al-Muxtasar al-kabir”, “Al-Muxtasar as-sag'ir”, “An-Navodir al-fiqhiyya”, “Al-Vasoya”¹¹.

Olimlar Imom Tahoviyning asarlari, chop qilingan qo'lyozmalarini hisoblaganda 30 dan ortishini takidlashgan.

Imom Tahoviy Misr o'lkasidan bo'lgan, u yashagan davrda Misrda shofeiylilik mazhabi hukm surgan va u yerga hanafiy qozilari odatda Kufadan kelib faoliyat

¹¹ Ahmad Sa'id Havva. Al-madhal ila mazhab al-imam Abu Hanifa an-Nu'man. – Jidda: Dar al-Andalus al-xazro, 2002. – B. 377.

yuritganlar. Shu etibordan olimlar Imom Tahoviyni Misrlik ilk hanafiy olimi deb tariflashadi¹².

Ibn Nadim “Al-Ansob” asarida: “Tahoviy ilm va zohidlikda o’z zamonasidagi tengsiz olim edi” degan.

Imom Zahabiy “Siaru A’lamin Nubalo” asarida: “Imom, alloma, buyuk hofiz, Misrning muhaddisi va faqihi edi. U yozgan asarlarni o’rgangan kishi uning ilmdagi mavqeyi naqadar baland bo’lganini ko’radi”.

Imom Suyutiy “Tabaqotul Huffoz” asarida “Imom, alloma, hofiz, misilsiz asarlar sohibi, ishonchli muhaddis va faqih kishi edi. Undan keyin unga o’xshagan ilm egasi kelmadi” degan¹³.

Ibn Yunus “Tahoviy ishonchli faqih edilar. Ular bu avlodning so’nggi vakili bo’lib, vafotlaridan so’ng bunday avlod tug’ilmagan”. degan

Alloma Badriddin Ayniy “Shunga ijmo qilinganki, Tahoviy siqalik, diyonat, omonat va komil fazilat sohibi bo’lganlar. Nosiq va mansuhni aniqlash hamda hadislarning illatlarini aniqlash va birini ikkinchisidan ustun qo’yishda mohir bo’lganlar. Vafotlaridan so’ng butun islom olamida ularning o’rnilarini bosa oladigan kishi bo’lmagan” degan¹⁴.

Maslama ibn Qosim al-Qurtubiy “Sila” nomli kitoblarida: “Tahoviy ishonchli, qadri ulug’, faqih, ulamolar ixtiloflarini biluvchi va bir qancha asarlar sohibidir”, deb aytadi.

Imom Tahovi Misrda, 321-yili, zulqada oyining boshida, payshanba kuni kechasi vafot etgan. Yoshi 80 yoki 82 da bo’lgan. Misrdagi Kurofa qabristoniga dafn etilgan. Ibn Xallikon o’zlarining “Vafayotul a’yon” asarida Imom Tahoviyning tarjimai hollarida shunday deydi: “Imom Tahoviy 321-h. yili, zulqa’da oyining avvali, payshanba kuni tunda Misrda vafot topgan. Qarofa qabristoniga dafn qilingan. Qabrlari

¹² Şuayb Seven. Tahâvinin Şerhu Müşkili'l-Âsâr'ında İhtilaflı Rivayetleri Çözüm Yöntemi // Ankara Sosyal Bilimler Üniversitesi. 2021. - №43. – B. 30.

¹³ Tahoviy. Shuayb Arnaut. Sharh Mushkilul-osor. – Bayrut: Muassasat ar-Risala, 1994. – B. 68.

¹⁴ Xabibulla Sagdiyev. Abu Ja’far At-Tahoviy hayoti va ilmiy merosi. Risola. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2014. – B. 26.

esa u yerda juda ham mashhurdir”. Shoh Abdulaziz ham olimni 80 yoshida, hijriy 321 yili vafot ekanligini qayd etgan¹⁵.

Badriddin Ayniy (vaf. 855/1451 y.) “Nuxabul afkor”da: “Misr ulamolari haqida yozilgan bir to‘plamda shunday deyilganini ko‘rdim: “Abu Ja‘far Tahoviyning qabri “Xandaq”dan “Masjidi Mahmud” tomonga o‘tsang, sharqiy o‘ng tomondagi mashhur katta qabrdir”, degan. “Xandaq”, “Masjidi Mahmud” bular tarixiy atamalardir. Lekin ana o‘sha tarix belgilari hozir yo‘q bo‘lib ketgan. Bugungi kunda Imom Tahoviyning qabrlari Imom Shofe‘iy qabrlariga olib boruvchi yo‘lining o‘ng tomonidagi unga parallel ravishda ketgan yo‘lda joylashgan. Ana shu ko‘chada Imom Tahoviyning hashamatli maqbarasi mavjud. Qabrlari ustida tarixlari yozilgan haybatli qabr toshi bor”¹⁶.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, milodiy to‘qqizinchi asr oxiri o‘ninchi asr boshlariga kelib, islom ilmlarini o‘rganishning yangi bosqichiga o‘tildi. Hususan hadis, fiqh va aqid kabi ilmlarni o‘rganishda yangi davr boshlandi. Bu davrga kelib ko‘plab ulamolar, faqihlari, muhaddislari bilan dong taratgan Misrga ko‘plab tolibi ilmlar oqib kela boshlagan. Imom Buhoriy, Imom Muslim, Nasoiy va shu kabi muhaddislar ham ilm olish maqsadida shu o‘lkaga kelib yetuk roviylardan hadislar eshitishgan.

Abu Ja‘far Tahoviy huddi shu makonda, shunday ilm rivoj topib turgan zamonda voyaga yetib o‘zidan boy ilmiy meros qoldirgan buyuk hanafiy olimlaridandir. U Misr diyorida shofeiy mazhabi keng tarqalganiga qaramay, bu mazhabni tark etib, Hanafiy mazhabini ihtiyor qildi va mazhabning zalvorli ulamolari qatoridan o‘rin egallay oldi. Bu Imom Tahoviyning ilmiy merosi naqadar yuksak qadr qimmatga ega ekanligiga dalolat qiladi.

Imom Tahoviy hadis, fiqh va aqid ilmlarida yetuk olim ekanligini barcha e‘tirof etadi. Bundan tashqari u kishi barcha mazhab ilmlarini mukammal egallab, hanafiy mazhabi dalillari asosli ekani va bu mazhabga ta‘na qilib otilayotgan “as‘hobi ra‘y” (o‘z fikriga suyanuvchilar) degan da‘vo noto‘g‘ri ekanligini isbotlab bergan.

¹⁵ Xabibullo Sagdiyev. Abu Ja‘far At-Tahoviy hayoti va ilmiy me‘rosi. – T.: 2014. – B. 10.

¹⁶ Tahoviy. Shuayb Arnaut. Sharh Mushkilul-osor. – Bayrut: Muassasat ar-Risala, 1994. – B. 98.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xabibullo Sagdiyev. Abu Ja'far At-Tahoviy hayoti va ilmiy me'rosi. – T.: 2014.
2. Tahoviy. Shuayb Arnaut. Sharh Mushkilul-osor. – Bayrut: Muassasat ar-Risala, 1994. J.1.
3. Zahabiy. Siyaru Alamin Nubalo. – Qohira: Dorul hadis, 2006 – XII.
4. Ahmad Sa'id Havva. Al-madخال ila mazhab al-imam Abu Hanifa an-Nu'man. – Jidda: Dar al-Andalus al-xazro, 2002.
5. Şuayb Seven. Tahâvînin Şerhu Müşkili'l-Âsâr'inda İhtilafli Rivayetleri Çözüm Yöntemi // Ankara Sosyal Bilimler Üniversitesi. 2021. - №43.